



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-noyabr

658-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 555-6-0-Q/24-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son qarorini ijrosini Mingbuloq tumanida ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son qarorini rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

quyidagilar suv polosi, suzish, sinxron suzish, suvga sakrash sport turlarini (keyingi o‘rinlarda—suv sporti turlari) rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

suv sporti turlarini aholi o‘rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yishi;

suv sporti turlari bo‘yicha yuqori mahoratli sportchilar qamrovini kengaytirish, suv sporti turlari bo‘yicha professional trenerlar, sport tibbiyoti xodimlari hamda boshqa mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishi;

suv sporti turlari bo‘yicha xalqaro talablarga muvofiq zamonaviy suv sporti inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashi;

sportchilarni vitaminlar, asbob-uskunalar, ekipirovka va boshqa zarur vositalar bilan muntazam ta‘minlab borishi;

suv sporti turlarini sogʻlom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi va yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiladigan sport turi sifatida targʻib qilib borishi;

belgilanishicha:

zarur sport infratuzilmasi mavjud boʻlgan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suv polosi va sinxron suzish guruhlarini tashkil etilishi; Andijon hamda Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suvga sakrash sport turini yanada rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilishi;

Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Suv sporti, eshkak eshish turlari nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasini negizida suv sporti turlari yoʻnalishlarini oʻz ichiga olgan “Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiyoti” hamda “Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiyoti” kafedralari tashkil etilishi;

belgilab qoʻyilishicha, 2025-yildan boshlab har yili suv sporti turlari boʻyicha quyidagi sport musobaqalari oʻtkazib borilishi;

sinxron suzish sport turi boʻyicha Toshkent shahrida “Suv parisi” xalqaro turniri;

suzish sport turi boʻyicha Samarqand viloyatida “Silk Water” xalqaro turniri; respublikaning barcha hududlarida yoz mavsumida oʻtkaziladigan “World Aquatics Day” ommaviy sport festivali;

suv sporti turlari boʻyicha Oʻzbekiston chempionatlari;

Sport sohasiga ajratilayotgan Davlat budjeti mablagʻlaridan samarali foydalanish va oʻzini oʻzi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish maqsadida Sport vazirligi tizimidagi sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablarining suv havzalarini saqlash bilan bogʻliq xarajatlarni moliyalashtirishning quyidagi tizimi joriy etilishi;

a) 2026-yil 1-yanvardan boshlab pullik xizmatlarni koʻrsatish uchun yetarli imkoniyatlarga ega suzish havzalari:

oʻzini oʻzi moliyalashtirish tartibiga oʻtkazilishi;

sport maktabi va ixtisoslashtirilgan sport maktabiga suv havzalarida joriy etiladigan pullik xizmatlar uchun toʻlovlar miqdorini mustaqil belgilash huquqi berilishi;

pullik xizmatlardan tushumlar, birinchi navbatda, foydalanilgan kommunal toʻlovlar xarajatlariga yoʻnaltiriladi hamda sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablariga mablagʻlarning qolgan qismidan mustaqil foydalanish huquqi berilishi;

sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablarining oʻzini oʻzi moliyalashtirishga oʻtkazilgan suzish havzalarida sport turlari boʻyicha mavjud guruhlar bilan shugʻullanayotgan trenerlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar Davlat budjeti

mablagʻlari hisobidan, suzish havzasining boshqa xodimlariga toʻlovlar pullik tushumlar hisobidan amalga oshirilishi;

b) daromadlari xarajatlarini qoplamaydigan va rekonstruksiya muhtoj suv havzalari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy investorlarga berilishi;

bunda, sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablarining davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investorlarga berilgan suv havzalarida sport turlari boʻyicha mavjud guruhlarining mashgʻulotlarini mazkur suzish havzalarida begʻaraz asosda oʻtkazib borilishi taʼminlanishi hamda ushbu talab tegishli davlat-xususiy sheriklik bitimlarida koʻzda tutilishi;

d) daromadlari xarajatlarini qoplamagan yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy investorlar tomonidan qiziqish bildirilmagan suv havzalari elektron onlayn-auksion savdolariga qoʻyilishi hamda ularni sotishdan tushadigan mablagʻlar elektron savdo maydonchasi operatori toʻlovini chegirib tashlagan holda, toʻliq hajmda Sportni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasiga tushirilishi;

e) suv havzalarini oʻzini oʻzi moliyalashtirishga oʻtkazish natijasida tejab qolinadigan budget mablagʻlari suv sporti turlari boʻyicha sportchilarni vitaminlar, asbob-uskunalar, ekipirovka va boshqa zarur vositalar bilan taʼminlashga, shuningdek, suv sporti turlari boʻyicha kadrlar malakasini oshirib borishga maqsadli yoʻnaltirilishi; f) ixtisoslashtirilgan sport maktablariga tegishli boʻlgan suv havzalari elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilgan hollarda ularning oʻquvchi-sportchilari tegishli hududdagi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining suzish havzalarida begʻaraz asosda shugʻullantirilishi;

suv sporti turlarini keng targʻib qilish va ommalashtirish, aholining ushbu sport turlariga qiziqishini oshirish maqsadida tajriba tariqasida 2026-yildan boshlab Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatidagi mahallalarda 6x15 metr oʻlchamli suzish havzalari barpo etilishi;

bunda, mazkur suzish havzalari tegishli hududdagi sport maktablari balansiga oʻtkazib berilishi hamda ularni saqlash xarajatlari sport maktabining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan amalga oshirilishi;

2025-2027-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida suv sporti turlari infratuzilmasini yaxshilash boʻyicha manzilli dastur ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda soha mutaxassislarining kasbiy mahoratini doimiy oshirib borish maqsadida, suv havzalarini oʻzini oʻzi moliyalashtirishga oʻtkazish natijasida tejab qolinadigan budget mablagʻlari hamda homiylik xayriyalari hisobidan;

mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida trenerlar, hakamlar va boshqa mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirib borish yoʻlga qoʻyilishi,

bunda, sportchilarni tayyorlash jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilishi;

2025-2027-yillarda milliy terma jamoalar trenerlari, shuningdek, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suv sporti turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan trenerlar xorijiy davlatlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborilishi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

viloyat sport boshqarmasi (A.To'ychiyev) manfaatdor boshqarma va idoralar, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son qarori talablari asosida ish tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi



A.Mansurov